

**FONETIK USLUBIYAT**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o`zbek tili va adabiyoti  
yo`nalishi 102-guruh talabalari*

*Tojimamatova Feruza Ikromjon qizi*

*Karimova Ruxshonaxon Anvarjon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti O`zbek tili va adabiyot kafedrasи  
Filologiya fanlari doktori dotsent **Usmonov Farxodjon Faxriddinovich***

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada fonetik uslubbiyatning nazariy asoslari, uning tilshunoslikdagi o`rni va ahamiyati yoritilgan. Unda fonetik vositalarning uslubiy funksiyasi, badiiy matnlarda ovoz, urg`u, intonatsiya va ritmning estetik ta`siri tahlil qilingan. Shuningdek, fonetik uslubbiyatning turli uslubiy qatlamlarda qanday ko`rinishlarda namoyon bo`lishi haqidagi fikr-mulohazalar yoritilgan.

**PHONETIC METOD****Annotation**

This article covers the theoretical foundations of phonetic Stylistics, its place and importance in linguistics. It analyzed the methodological function of phonetic media, the aesthetic effects of sound, stress, intonation and rhythm in artistic texts. Also, the opinions on how phonetic Stylistics manifests itself in different stylistic layers are covered.

**ФОНЕТИЧЕСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ****Аннотация**

В данной статье освещаются теоретические основы фонетической методологии, ее место и значение в лингвистике. В нем анализируется стилистическая функция фонетических средств, эстетическое влияние голоса, ударения, интонации и ритма в художественных текстах. Также освещаются размышления о том, как фонетическая стилизация проявляется в различных стилистических слоях.

**KALIT SO`ZLAR:** fonetik uslubiyat , fonetik vositalar , tovush tizim , urg`u, intonatsiya, ritm, alliteratsiya, badiiy uslub, og`zaki nutq, ifodaviylik.

**Keywords:** phonetic Stylistics, phonetic tools , sound system , stress , intonation, rhythm, alliteration, artistic style, oral speech, expressiveness.

**Ключевые слова:** фонетическая методика, фонетические средства, звуковая

система,ударение,интонация,ритм,аллитерация,художественный стиль,устная речь,выразительность.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik qatlamini tebratishidan hosil bo'ladi; demak, uning akustik (fizik) jihatni bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmua zaminidagi ma'noni idrok etadi, bu perceptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma'lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra turli nuqtai nazaridan o'rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy fonetika; tarixiy (dioxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi.

Fonetik uslubiyat-tilshunoslikning fonetika va uslubiyat sohalarini qamrab oluvchi yo`nalish bo`lib,til birliklarining tovush darajasidagi estetik,ekspressiv va funksional imkoniyatlarini o`rganadi.Har bir nutq uslubida fonetik vositalar ma'no ifodasi,hissiy ts`sir va ohangdorlikni kuchaytirishda muhim ro`l o`ynaydi.Ushbu maqolada fonetik uslubiyatning nazariy asoslari,uning turli uslublardagi ko`rinishlari va badiiy matnlardagi estetik vazifalari tahlil etiladi.

Fonetik uslubiyat asosan tovushlar tizimi,urg`u, intonatsiya,ritm kabi fonetik hodisalarning matndagi ifodaviy vazifasini o`rganadi.U nafaqat fonetik birliklarni o`zaro uyg`unlashtirish, balki ularning uslubiy yuklamasini ham aniqlashga xizmat qiladi.Ayniqsa, badiiy adabiyotda tovush uyg`unligi alliteratsiya kabi usullar matnning poetik kuchini oshirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.Fonetik vositalarning badiiy matndagi funksiyasi badiiy uslubda fonetik vositalar obraz yaratish,hissiy ta`sirni kuchaytirish va matn ohangini belgilashda faol ishlatiladi.Masalan,alliteratsiya-bir xil undosh tovushlarning takroriy ishlatilishi orqali nutqqa musiqa va ritm olib kiradi.Fonetik uslubiyatning boshqa uslublardagi ko`rinishlari faqat badiiy matnlarda emas ,balki rasmiy,publitsistik va og`zaki nutq uslublarda ham o`ziga xos tarzda namyon bo`ladi.Rasmiy uslubda fonetik vositalarning vazifasi aniqlik va lo`ndalikni ta`minlshdir.Bu uslubda urg`u va pauza kabi hodisalar nutqning izchilligi va tushunarli bo`lishiga xizmat qiladi.Publitsistik uslubda esa fonetik vositalar nutqning obrazliligi va ta`sirchanligini kuchaytirish uchun qo`llaniladi. Jumladan, ohangdorlik, urg`u, intonatsiyaning o`rnini oshirish orqali auditoriyani ruhlantirish yoki ishontirishga erishiladi.Og`zaki nutqda fonetik jihatlar alohida o`rin tutadi.So`zlovchining

pauza,urg`u va intonatsiyadan to`g`ri foydalanishi tinglovchida to`g`ri tushuncha va emotsiyal ta`sir uyg`otadi.

Fonetik uslubiyat tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo`lib,u til birliklarining tovushi darajadagi estetik va semantik imkoniyatlarini ochib beradi.Har bir nutq uslubining o`ziga xos fonetik xususiyatlari mavjud bo`lib,ular tilning go`alligi,ta`sirchanligi va mazmundorligini ifodalaydi.Fonetik vositalardan oqilona foydalanish o`quvchida chuqur emotsiyal taassurot uyg`otadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "Fonetik stilistik uslublar" Maktabgacha ta`lim jurnali
2. Gadoyeva M.I. Nazariy fonetika.ZiyoNET,2019.
3. Iminov M.,Numonov T.,Boboxonovz D.O`zbek tili uslubiyati masalalari.
4. Nabiyeva D.A.,Zokirova H.R. O`zbek tili fonetikasi.